



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(5)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 240 sahifa,
16-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Tinglovchilarga axloqiy-estetik tarbiya berishda notiqlik madaniyatini shakllantirishning samaradorlik ko'rsatkichlari	10
<i>Fazliddin Abdunabiyevich Abdurazaqov</i>	
Professor-o'qituvchilarning ilmiy-pedagogik salohiyatini xalqaro mezonlar asosida rivojlantirish yo'llari	15
<i>Maxmudov Qudratbek Shavkat o'g'li</i>	
Orfografik kompetensiyaning mohiyati va boshlang'ich sinflarda shakllanish bosqichlari	21
<i>Abduvaliyeva Nodira Alisherovna, Mo'minjonova Gulnoraxon Abdupatto qizi</i>	
Tabiiy fanlarni o'qitishda uch o'lchamli vizualizatsiyalarning boshlang'ich ta'limdagi ahamiyati	25
<i>Nabijonova Feruza Valijon qizi</i>	
Loyiha texnologiyasi asosida bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy tashabbuskorlikni rivojlantirish mazmuni	28
<i>O'rinova Nilufar Muxammadovna</i>	
Sinfdan tashqari o'qish darslarida badiiy asar bilan ishlashning kompetensiyaviy yondashuv asosidagi metodikasi	32
<i>Qilichova Billura Yorqinxuja qizi, Homidov H. K.</i>	
Kasbiy-kommunikativ madaniyat fenomenining pedagogik talqini va rivojlanish tendensiyalari	37
<i>Tashpulatova Nodira Olimjon qizi</i>	
Tabiiy fanlarni o'qitishda kompetensiyaviy yondashuv	41
<i>Umbarova Nasiba Xolboy qizi</i>	
Xorijiy tillarni o'rganishda shaxs nutqining shakllanishida psixolingvistikaning ahamiyati	44
<i>Ahmedov Shavkat Asadilloevich, Ataboev Navruz Ilhombek o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matnni tushunish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi (PIRLS dasturi misolida)	47
<i>Abduraxmanova Charos Burxanovna</i>	
Lesson Planning in English Language Teaching at Technical Universities	51
<i>Aitbaeva Nursuliu Tairbekovna</i>	
Lingvistik intellekt asosida individual o'qitish yondashuvining samaradorligi	55
<i>Allanazarova Sadoqat Azimovna</i>	
Xorij tadqiqotlarida zamonaviy oila transformatsiyasida farzandlar taraqqiyotining ijtimoiy-psixologik asoslari	59
<i>Bo'riyeva Mahbuba Shavkatovna</i>	
Теоретико-методологические подходы к изучению эмоциональных концептов в литературе: (на материале английских и немецких фразеологизмов)	63
<i>Сайёра Улашевна Тагаева, Азиза Анкаевна Уразкулова</i>	
The Importance of Forming a Schedule for High School Students	67
<i>D. T. Atabayeva, X. I. Abduraymova</i>	
Milliy cholg'u ansambllari orqali o'quvchilar musiqiy dunyoqarashini shakllantirish	70
<i>Dadamirzayeva Gulshanoy To'lanjon qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ma'naviy-axloqiy tarbiyaga yondashuvning texnologik xususiyatlari ...	75
<i>Jumanov Sherzod Saloyevich</i>	
Adabiyot darsliklari uchun yangi o'zbek adabiyoti namunalarini saralashning ilmiy-metodik asoslari	78
<i>Musaboyeva Zulfira Iqboljon qizi</i>	
Maktab geometriyasida ko'pyoqlilar mavzusini o'rganishning innovatsion usullari	83
<i>Pirlepesov Umrbek Baxtiyor o'g'li</i>	
Generativ AI vositalarining mustaqil ta'lim jarayonidagi didaktik funksiyalari	86
<i>Qahramonova Xumora Qahramonovna</i>	
O'quvchi-sportchilar uchun individual mashg'ulot yuklamalarini avtomatik rejalashtirish va optimallashtirish imkoniyatini yaratish ahamiyati	91
<i>Qosimov Faxriddin Jo'raqulovich</i>	



Когнитивный диссонанс как социально-психологический феномен в контексте высшего образования: теоретический анализ	95
Мансурова Гульмира Рафазловна	
Регуляторный произвол или необходимый порядок? Влияние новых регуляторных механизмов на свободу расследовательской журналистики	101
Рауфова Озода	
Qizlar tarbiyasida mahalla–oila–maktab hamkorligi mexanizmlari	105
Choriyeva Dildora Ismat qizi	
Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini individuallashtirishning samaradorligi: kompetensiyaviy yondashuv asosida	109
Tangriyev Abdulkarim Tovashevich	
O'qish savodxonligi darslarida matn bilan ishlash orqali o'quvchilarda muammoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyasi.....	114
Boymurodova Nodirabegim Bahodir qizi	
Raqamli transformatsiya sharoitida STEAM ta'limi orqali talabalarda tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirish	120
Kozimova Mehriniso Akbarali qizi	
Oliy ta'limda kvest texnologiyasi yordamida fizika fanining murakkab tushunchalarini o'zlashtirish samaradorligini oshirish metodikasi.....	125
O'rinboyeva Kumushoy Sultonbek qizi	
Tasvirlarga raqamli ishlov berish texnologiyalari va ularning amaliy qo'llanilishi	129
Sharipov Nodir Botir o'g'li	
Management of Medical Emergencies in Outpatient Dental Clinics.....	133
Adurazzoqov Kamoliddin, Umarov Maruf, Buzrukhoda Javohir	
Psixologik farovonlikning asosiy komponentlari, ta'sir qiluvchi omillar va zamonaviy baholash usullari	138
Aliyev Samariddin Murotali o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	142
Boymurodova Sadoqat Istam qizi	
O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi.....	146
Gadoymurodova Kamola Sunnatulloevna	
Oilada bola tarbiyasining ahamiyati va uning shaxs kamolotiga ta'siri	151
Galdiyeva Mehribon Durdiyevna, Oilimova Mushtariy Xaydarali qizi	
Art-pedagogika vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida estetik dunyoqarashni shakllantirishning pedagogik ahamiyati	154
Gulboyev Akbar Tuxtyayevich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy tadbirlar orqali vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish	158
Homidov Husniddin Kupaysinovich, Yusupova Gulzor Yunusjon qizi, Norbekova Sevinch Musurmon qizi	
Bone-Grafting Materials in Oral Surgery: Classification, Biological Properties, and Clinical Application	161
Jumaqulova Mashhura Alishevovna, Buzrukhoda Javohir Davronovich	
Mediatsiya va o'qib tushunish kompetensiyasi o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik	166
Karimova Dilyoraxon Raximjon qizi	
Using STEM Technologies to Foster Rational Thinking in the Dentistry	169
Khonimqulov Javlon, Burkhonova Zarafuz	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini montessori metodikasi vositasida til o'rganish ko'nikmalarini shakllantirish usullari modeli.....	173
Mahbuba Yusupova Rustam qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda tayanch kompetensiyalarni integrativ yondashuv asosida shakllantirish metodikasining samaradorligi.....	177
Nasimova N. Q.	
Analysis of Scanning Techniques Used in Orthodontic Dentistry	182
Nasrullayev Javlonbek Ta'atonovich, Rahimberdiyev Rustam Abdunosirovich	
Zamonaviylik - ta'lim konsepsiyasida asosiy mezon sifatida	187
Ochilova Gulnoza Odilovna	

MUNDARIJA SOÐERJANIE CONTENTS

O'qish savodxonligi darslarida xalq og'zaki ijodidan foydalanish metodikasi	191
<i>Qahhorova Sojida Bahodir qizi, Zokirov Javoxir G'aybullo o'g'li</i>	
Diqqat va xotira jarayonlarida raqamli texnologiyalarning roli	196
<i>Salomova Nargiza Sattorovna</i>	
Talabalarda kasbiy refleksiya rivojlanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillarning empirik tahlili.....	200
<i>Shukurova Nargiza Ikramovna</i>	
Gimnastikachi qizlarda egiluvchanlik jismoniy sifatini rivojlantirish jarayonida shikastlanishlarning oldini olish	205
<i>Sultanova Musharafxon Xudoyqul qizi</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ekologik bilimlarni raqamli texnologiyalar yordamida rivojlantirish...	210
<i>Sayfetdinova Dildora Ikramitdinovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishida shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari, imkoniyatlari va yo'nalishlari	216
<i>Uralova Nurxon Maxadovna</i>	
Naqshbandiya qadriyatlarini bo'lg'usi o'qituvchi shaxsini shakllantirishdagi o'rni.....	220
<i>Xalmuxamedova Maxbuba Aslanovna</i>	
Boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari	223
<i>Xo'jamberdiyeva Maftuna Norqobilovna, Sanaqulova Sevinch Baxtiyor qizi</i>	
Developing Logical Thinking via the Use of STEM Technology	226
<i>Yarmuhammedov Nabijon Navruzovich, Burkhonova Zараfruz</i>	
Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion metodlardan foydalanishning ahamiyati	229
<i>Yo'ldoshboyeva Zulfiya Ravshan qizi, Jumayev Abdilxakim Turdiyevich</i>	
Значение предмета физического воспитания и спортивной метрологии в физическом воспитании молодежи	233
<i>Маматкулов Равшанжон Солижонович</i>	
Аксиологические аспекты диалога культур в романе Сухбата Афлатуни "Рай Земной"	237
<i>Чернова Татьяна Алексеевна, Худойназаров Сардорбек</i>	



BOSHLANG'ICH TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING ILMIY- METODIK ASOSLARI

Xo'jamberdiyeva Maftuna Norqobilovna
Osiyo texnologiyalari universiteti Pedagogika kafedrası dotsenti

Sanaqulova Sevinch Baxtiyor qizi
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarni qo'llashning ilmiy-pedagogik asoslari tahlil qilingan. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning kognitiv rivojlanishida multimedia vositalari va o'yinlashtirilgan texnologiyalarning o'rni hamda ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi metodik tavsiyalar ishlab chiqilib, tadqiqot natijalari asosida tegishli xulosalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, raqamli texnologiyalar, multimedia vositalari, o'yinlashtirish, kognitiv rivojlanish, ta'lim samaradorligi, interfaol ta'lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, innovatsion yondashuv, metodik tavsiyalar.

Abstract: This article analyzes the scientific and pedagogical foundations of applying digital technologies in primary education. It highlights the role and significance of multimedia tools and gamification technologies in the cognitive development of primary school learners. In addition, methodological recommendations aimed at improving educational effectiveness are presented, and conclusions are drawn based on the research findings.

Key words: primary education, digital technologies, multimedia tools, gamification, cognitive development, educational effectiveness, interactive learning, information and communication technologies, innovative approach, methodological recommendations.

Аннотация: В статье проанализированы научно-педагогические основы применения цифровых технологий в системе начального образования. Освещены роль и значение мультимедийных средств и технологий геймификации в когнитивном развитии младших школьников. Кроме того, разработаны методические рекомендации, направленные на повышение эффективности образовательного процесса, и представлены выводы, основанные на результатах исследования.

Ключевые слова: начальное образование, цифровые технологии, мультимедийные средства, геймификация, когнитивное развитие, эффективность обучения, интерактивное обучение, информационно-коммуникационные технологии, инновационный подход, методические рекомендации.

KIRISH

Zamonaviy axborot jamiyati taraqqiyoti ta'lim tizimi, xususan, uning poydevori hisoblangan boshlang'ich ta'lim oldiga mutlaqo yangi talablarni qo'ymoqda. Kognitiv psixologiya va neyropedagogika tadqiqotlariga ko'ra, kichik maktab yoshidagi bolalar (6-10 yosh) axborotni asosan vizual va interaktiv shaklda qabul qilishga moyil bo'ladilar. Shu bois boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsga bo'lgan motivatsiyasini oshirish, ularda mantiqiy va kreativ fikrlashni shakllantirishda raqamli texnologiyalar ajralmas vositaga aylanmoqda.

Ushbu maqolaning maqsadi - boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalarni (elektron darsliklar, multimedia ilovalari, o'yinli ta'lim platformalari) qo'llashning pedagogik va psixologik qonuniyatlarini ilmiy jihatdan asoslash hamda ularning ta'lim samaradorligiga ta'sirini tahlil qilishdan iborat.

Boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish bugungi kunda shunchaki darsni qiziqarli qilish vositasi emas, balki ta'lim sifatini oshirishning ilmiy-metodik asosi hisoblanadi. Chunki olti-o'n yoshli bolalarda sensor, ya'ni aniq his qilish va vizual, ya'ni ko'rish xotirasi juda kuchli rivojlangan bo'ladi. So'nggi yillarda ushbu yo'nalishda shakllangan eng yangi ilmiy-metodik yondashuvlar va ma'lumotlar quyidagilardan iborat.

Zamonaviy ilmiy-metodik konsepsiyalar. Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'qituvchisi kompyuterdan shunchaki slayd ko'rsatish uchun foydalanmasligi kerak. Ilmiy tadqiqotlar uchta asosiy metodik konsepsiyani ilgari surmoqda.

Birinchi - **edutainment, ya'ni o'yin orqali o'qitish konsepsiyasi**. Kichik maktab yoshidagi bolalarning yetakchi faoliyati o'yindan mehnat va o'qishga o'tayotgan davr hisoblanadi. Raqamli o'yinlar bolada darsga nisbatan ichki motivatsiyani uyg'otadi.

Ikkinchi - **adaptiv, ya'ni moslashuvchan ta'lim modeli**. Sun'iy intellektga asoslangan dasturlar har bir o'quvchining o'zlashtirish tezligini tahlil qiladi. Masalan, matematika darsida tezroq ishlaydigan bolaga murakabroq, qiynalayotgan bolaga esa soddaroq topshiriqlarni tizimning o'zi avtomatik tarzda taqdim etadi.

Uchinchi - **blended learning, ya'ni aralash ta'lim modeli**. Bu yondashuv an'anaviy kitob-daftar bilan ishlash va raqamli resurslardan foydalanishni muvozanatlashtirishga asoslanadi. Mazkur metodika bolaning ko'zi toliqishi va gadgetlarga qaram bo'lib qolishining oldini oladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari bo'yicha jahon va respublika miqyosida keng qamrovli tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ularni bir necha yo'nalishlarda tahlil qilish mumkin.

Xorijiy olimlarning tadqiqotlarida raqamli texnologiyalarning psixologik va kognitiv asoslari ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Shveysariyalik psixolog Jan Piajening intellektual rivojlanish nazariyasiga tayanib, ko'plab zamonaviy tadqiqotchilar kichik maktab yoshidagi bolalarda ko'rgazmali-amaliy tafakkur yetakchi ekanligini ta'kidlaydilar.

Seymour Papert o'zining konstruktivizm nazariyasida raqamli muhit bolaga bilimlarni tayyor holda olish emas, balki ularni mustaqil ravishda kashf etish imkonini berishini isbotlagan. Uning fikricha, kompyuter dasturlari orqali modellashtirish bolalarda mantiqiy va algoritmik fikrlashni erta shakllantiradi.

Raqamli ta'lim muhitida o'yin texnologiyalarini qo'llash, ya'ni edutainment konsepsiyasi yuzasidan Karl Kapp o'z ishlarida muhim xulosalarni keltirgan. U ta'limni o'yinlashtirish (geymifikatsiya) jarayoni boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsga bo'lgan ichki motivatsiyasini an'anaviy metodlarga nisbatan bir necha barobar oshirishini eksperimental tarzda isbotlagan.

Rossiyalik olimlardan Robert Ibragimovich raqamli ta'lim muhitini modellashtirish va axborot xavfsizligi masalalarini tadqiq etgan. U boshlang'ich sinflarda texnologiyalarni pedagogik maqsadga muvofiqlik tamoyili asosida tatbiq etish zarurligini, ya'ni texnologiya darsning maqsadiga aylanib qolmasligi, balki vosita sifatida xizmat qilishi kerakligini asoslab bergan. Kichik yoshdagi bolalarning gigiyenik salomatligi va ekran qarshisida bo'lish vaqtini me'yorlashtirish bo'yicha ham metodist olimlar tomonidan tahliliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

O'zbekistonlik olimlar va tadqiqotchilar ham ushbu mavzuni milliy ta'lim standartlari doirasida keng o'rgan-ganlar. Respublikamizda boshlang'ich ta'limni raqamlashtirishning metodik tizimi shakllantirilgan bo'lib, unda milliy darsliklar va elektron platformalarning, jumladan, maktab smart tizimlarining uzviyligi tadqiq etilgan.

Mahalliy metodistlar raqamli vositalardan foydalanishda o'qituvchining metodik kompetentligiga alohida e'tibor qaratadilar. Ularning fikricha, dars samaradorligi texnologiyaning mukammalligiga emas, balki o'qituv-chining uni an'anaviy metodlar bilan qay darajada to'g'ri uyg'unlashtira olishiga bog'liq.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, zamonaviy tadqiqotlar raqamli texnologiyalarni shunchaki namoyish etish vositasi sifatida emas, balki har bir o'quvchining shaxsiy ta'lim trayektoriyasini belgilovchi, jamoaviy ishlash ko'nikmalarini rivojlantiruvchi va ta'limni individuallashtiruvchi strategik resurs sifatida baholamoqda. Shu bilan birga, barcha tadqiqotchilar raqamli vositalar va an'anaviy yozuv hamda mutolaa ko'nikmalari o'rtasidagi peda-gogik muvozanatni saqlash eng muhim metodik talab ekanligini yakdillik bilan e'tirof etadilar.

Boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalarni joriy etish shunchaki darsda kompyuter yoki proyektordan foydalanish emas, balki ta'lim metodikasini transformatsiya qilishdir.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ilmiy nuqtai nazardan, ushbu jarayon quyidagi muhim funksiyalarni bajaradi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda mavhum fikrlash (abstraksiya) hali to'liq shakllanmagan bo'ladi. Matematik amallar, tabiat hodi-salari yoki til qoidalarini animatsiyalar va 3D modellar orqali namoyish etish fanning o'zlashtirilish darajasini sezilarli ravishda oshiradi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ta'limiy o'yinlar (edutainment) jarayonida bolada dofamin gormoni ajralib chiqadi va bu o'rganishga nisbatan ijobiy emotsional bog'liqlikni yuzaga keltiradi. Kahoot, Quizizz kabi platformalar yoki maxsus o'quv dasturlari orqali tashkil etilgan mashg'ulotlar bolani charchatib qo'ymaydi.



Raqamli platformalar har bir o'quvchining individual sur'atda bilim olishiga imkon beradi. Iqtidorli o'quvchilar murakkabroq topshiriqlar ustida ishlasa, o'zlashtirish darajasi pastroq bo'lgan bolalar mavzuni raqamli resurslar yordamida qayta o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Biroq, ilmiy pedagogika raqamli texnologiyalardan foydalanishda gigiyenik va psixologik me'yorlarga amal qilishni talab etadi. 1-4-sinf o'quvchilarining monitor qarshisida uzluksiz o'tirish vaqti 15-20 daqiqadan oshmasligi zarur. Aks holda, bu holatning ko'rish qobiliyati va asab tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ilmiy jihatdan isbotlangan.

Raqamli texnologiyalarning ijobiy psixologik ta'siri ham alohida ahamiyatga ega. Birinchidan, mavhumlikdan aniqlikka o'tiladi. Kichik yoshdagi bolalar mavhum formulalardan ko'ra, ekranda predmetlarning birlashishi yoki kamayishini kuzatganlarida matematik qonuniyatlarni tezroq anglaydilar.

Ikkinchidan, xato qilishdan qo'rqmaslik hissi shakllanadi. Raqamli dasturlarda bola xato qilgan taqdirda unga past baho qo'yilmaydi, aksincha, dastur qayta urinib ko'rish imkoniyatini beradi. Bu esa bolada muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqmaslik va psixologik qulaylik hissining shakllanishiga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning kognitiv faolligini oshiradi, dars materiallarining ko'rgazmaliligini ta'minlaydi hamda ta'lim sifatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Raqamli vositalar an'anaviy ta'lim metodlarini to'liq inkor etmaydi, aksincha, ularni boyitadi va o'qituvchining metodik imkoniyatlarini kengaytiradi.

Muvaffaqiyatli raqamli ta'limni tashkil etish uchun nafaqat maktablarni zamonaviy texnik vositalar bilan jihozlash, balki boshlang'ich sinf o'qituvchilarining raqamli kompetentligini, ya'ni pedagogik-raqamli savodxonligini muntazam ravishda oshirib borish ham zarur.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalar o'qituvchining o'rnini bosuvchi vosita emas, balki uning darolarini samaraliroq, ko'rgazmaliroq va qiziqarliroq tashkil etishga xizmat qiluvchi kuchli pedagogik vositadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A.A. Abduqodirov, R.H. Ayupov, F.N. Toshboyev "Ta'limda axborot texnologiyalari" Toshkent-2021
2. U.Sh. Begimqulov "Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishning nazariy-metodik asoslari"
3. A.A. Abduqodirov, J.E. O'tayev "Ta'limda multimedia texnologiyalaridan foydalanish metodikasi" Toshkent 2022
4. Taylaqov N.I. va boshqalar. (2022). Uzluksiz ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etishning pedagogik xususiyatlari. Toshkent: "Fan va texnologiyalar".
5. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A. (2018). Ta'limda innovatsion texnologiyalar (pedagogik texnologiya turlari va ularning qo'llanilishi). Toshkent: "Iste'dod".

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.